

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

*Moliya*  
**bakalavriat ta’lim yo‘nalishining davlat ta’lim talablari**

**Qo‘qon - 2021**

## **SO‘Z BOSHI**

### **1. ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Qo‘qon universiteti;
- Qo‘qon shahar hokimligi.

### **2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ - sonli yig‘ilishida ma’qullangan.

### **3. JORIY ETILGAN:**

Qo‘qon universiteti.

Mazkur davlat ta’lim talablarini O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
<b>1.</b>	<b><i>Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....</i></b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.2.	<i>Moliya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
<b>2.</b>	<b><i>Moliya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar.....</i></b>	<b>7</b>
2.1.	Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar .....	7
2.2.	<i>Moliya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari.....</i>	7
<b>3.</b>	<b><i>Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....</i></b>	<b>10</b>
3.1.	O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	10
3.2.	<i>Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidegi yuklama hajmi.....</i>	11
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>12</b>

## **1. Moliya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**Moliya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi oliy ta’limning kredit tizimi (ECTS) asosida ta’lim berishga yo‘naltirilgan o‘quv reja va fan dasturi (sillabus) asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, belgilangan miqdordagi kreditni olgan (240 kredit, GPA 2.5 va undan yuqori) shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O‘quv reja va fan dasturi (sillabus)da ko‘zda tutilgan o‘quv shakli, me’yoriy muddati va unga muvofiq mos malaka darajasi 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

### **O‘quv reja va fan dasturi (sillabus)ning muddati va bitiruvchilarining malaka(daraja)si**

O‘quv reja va fan dasturi (sillabus)ining nomi	Malaka (daraja)	O‘quv reja va fan dasturi (sillabus)ni o‘zlashtirishning me’yoriy muddati
Bakalavriat ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturi (sillabus) lari	Bakalavr	4 yil (240 kredit, GPA 2.5 va undan yuqori)

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1.** Oliy ta’limning ushbu davlat ta’lim talabi **Moliya** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlash o‘quv reja va fan dasturi (sillabus)larining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda Qo‘qon universiteti nodavlat oliy ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda - Qo‘qon universiteti) uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

**1.1.2.** Qo‘qon universiteti Moliya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashda mazkur davlat ta’lim talabi asosida o‘quv reja va fan dasturi (sillabus)larni ishlab chiqish va nashr etish huquqiga ega.

**1.1.3.** Davlat ta’lim talabining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturi (sillabus)larini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul Qo‘qon universiteti ning professor - o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturi (sillabus)larini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv hamda tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalar;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan Qo‘qon universiteti ning boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, akademik departament boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi iste’molchi korxona va tashkilotlar;
- Qo‘qon universiteti ni moliyalashtirishni ta’minlovchi ta’sischilar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- ta’lim yo‘nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan talabalar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**Moliya** bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan-ta’lim va ishlab chiqarish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, quyidagilardan iborat: turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq, sohalarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari, moliya, kredit va sug‘urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarning moliya, iqtisodiy, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o‘z ichiga oladi tarmoqlar va sohalar bo‘yicha tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Shu jumladan:

- moliya, kredit va sug‘urta muassasalarini;
- davlat va mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy va investitsiya bo‘limlari;
- akademik va tarmoq ilmiy tadqiqot tashkilotlarining iqtisodiy, moliya bo‘linmalari;

#### **1.2.2. Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:**

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bozordagi hatti-harakati, hulq-atvori, tashqi va ichki harajatlari hamda pirovard natijalari;
- harakatdagi bozorlar, moliya va axborot oqimlari;
- Moliyaning tarmoqlar va sohalar bo‘yicha, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, assotsatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarining rivojlantirish asoslari;
- firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatini rejalashtirish va boshqarish, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta’minalash;
- ishlab chiqarish jarayonlari.

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda, bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob’ektlarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘srimcha va o‘zgarishlar muayyan talim yo‘nalishilarining davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.*

**Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:**

- moliyaviy hisob-kitob faoliyati;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini belgilovchi iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisob-kitobi uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlarni tayyorlash;
- harakatdagi me’yoriy-huquqiy bazada keltirilgan andozali uslub asosida iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisob-kitobini olib borish;
- turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq, sohalarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari dasturlarini (biznes-reja) iqtisodiy bo‘limlarni ishlab chiqish;
- tahliliy, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat;
- aniq iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan, olingan topshiriq bo‘yicha axborot ma’lumotlarini izlash, to‘plash va tahlil qilish;
- iqtisodiy ma’lumotlar to‘plamini qo‘ylgan topshiriqqa asosan qayta ishlash, tahlil qilish, baholash, olingan natijalarni qiyoslash va asoslangan xulosalarga kelish;
- yo‘nalish faoliyati sohasiga tegishli tadqiq etilayotgan jarayonlar, hodisalar hamda ob’ektlarni standart nazariy va ekonometrik modellarni tuzish, tahlil qilish va olingan natijalarni qiyoslash;
- O‘zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo‘ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;
- mehnatni boshqarish, tahlil qilish, xronometraj o‘tkazish, tabellar tayyorlash, ish haqi hisobi uchun tarif tizimini, tarif malaka ma’lumotnomasi va tarif razryadlarini ishlab chiqish;
- tahliliy hisobotlar va axborotlar sharhini tayyorlash;
- maqsadli bozorning talab va taklif tahlilini amalga oshirish;
- statistik kuzatishlar, so‘rovlar, anketa so‘rovlar va ularning birlamchi natijalarini qayta ishlash;
- yo‘nalish faoliyati soxasidagi loyiha yechimlarini ishlab chiqishda ishtirop etish, ishlab chiqilgan loyiha va dasturlarni xayotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar va chora-tadbirlarni tayyorlash;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni havf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqarishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirop etish;
- topshirilgan ishning bajarilishini tashkil etish;
- aniq iqtisodiy loyihani bajarish uchun tashkil etilgan jamoa va guruhlarni tezkor ravishda boshqarish;

- turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq va sohalarning xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarini iqtisodiy xizmatlar hamda bo‘limlari faoliyati boshqaruvini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni tayyorlashda ishtirot etish;
- pedagogik faoliyat (mактабгача, умумта’лим, о‘рта максус та’лим муассасаларидаги iqtisodiy fanlardan dars berish);
- ilmiy-tadqiqot loyihalari, jumladan, modellar, algoritmlar, metodlar, dasturiy yechimlar, instrumental vositalarni tadqiq qilish;
- tarmoqlar va sohalarni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini tadqiq etish;
- tarmoqlar va sohalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tadqiqot qilish;
- tarmoqlar va sohalarda ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish metodlarini qo‘llash;
- Molianing barcha soha va tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish loyihalarini ishlab chiqish metodlarini qo‘llash;
- tarmoqlar va sohalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo‘llash;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, IoT, blokcheyn va BigDatani amaliyotga tatbiq etish;
- dasturiy ta’minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalanish.

#### **1.2.3. Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- molivaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- jarayonlarni axborotlashtirish va raqamlashtirishni tashkil etish;
- ilmiy tadqiqot;
- pedagogik (umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida).

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilaridan kelib chiqqan holda bakalavr larning kasbiy faoliyat turlarida qo‘shimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari kadrlar buyurtmachilarining talablari bo‘yicha real sektor, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, yengil sanoat, sanoat tarmoqlari va sohalari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

#### **1.2.4. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari**

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan so‘ng o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishi mumkin.

#### **1.2.5. Ta’limni davom ettirish imkoniyatlari**

*Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tiligaln magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qishni davom ettirishi mumkin.*

Shuningdek, o‘rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

### **2. Moliya ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar**

#### **2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar:**

##### **Bakalavr:**

- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- milliy ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlararo aloqalar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, iqtisodiy bilimlar nazariya va amaliyotiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

- ishlab chiqarish jarayonlarini axborotlashtirish, ishlab chiqarishga axborot texnologiyalari va tizimlarini joriy etish hisobiga raqamlashtirish va blokcheyinni qo'llash usullari haqida maxsus tasavvur va bilimlarga ega bo'lishi;
- global moliya, uni rivojlanishi, jahon xo'jaligini o'zgarish tendensiyalari hamda barcha bozorlardagi ishtirokchilarning harakatlarini anglashi va tahlil qila olishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- ta'lif yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashi;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish imkoniyatga egadir.

## **2.2. Moliya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyatlariga qо'yladigan davlat ta'lim talablari**

### **Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda:**

- davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasini boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar biznes-rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar marketingi tadqiqotlarini o'tkazish;
- sub'ektlari faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qo'llash;
- mehnat bozorida iqtisodiy tadqiqotlarni o'tkazish;
- ish haqini hisoblash, xronometraj o'tkazish;
- sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

### **Hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- Molianing tarmoqlar va sohalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yordi va talablari asosida tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichilari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- axborot-texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lishi va ulardan samarali foydalanish yo'llarini bilishi, IoT, BigData va blokcheyn texnologiyalarini amaliyotda qo'llashning ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- rejalashtirish ishlarini tashkil etish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqish;
- biznes-rejani ishlab chiqish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish;
- moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlar normativini ishlab chiqarish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ekt va uning buyruqlari faoliyatini iqtisodiy tahlil hamda hisob-kitob qilish;
- mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ratsionalizatorlik takliflar va ixtiolar bo‘yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;
- axborot-komunikatsiya texnologiyalarini olib borish uslublari va vositalardan foydalanish;
- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni to‘plash;
- tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish;
- hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorijiy tajribasini o‘rganish;
- ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilih;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalardan foydalanish;
- mehnatni muhofaza qilish me’yor va qoidalariga amal qilish.
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarida iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishlarning natijalarini baholash *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim*.

#### **Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarini rejalashtirish va bajarish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo‘linmalarini tashkil etish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda yangi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning namunaviy texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va qo‘llash;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish tamoyillarini qo‘llash;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- loyihibiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarni iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini qo‘llash;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari raqobat strategiyalarini ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak*.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
  - tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-teknika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
  - tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalardagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
  - internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
  - ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
  - ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
  - ma'lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
  - tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
  - ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*
- Pedagogik faoliyatida (umumiyo'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida):**
- umumiyo'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha iqtisodiy fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;
  - o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtiroy etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;
  - o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
  - mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish *qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.*

### **3. Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo'yiladigan umumiyo'rta talablar**

**Moliya** bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiyo'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzlusizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda, ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- majburiy fanlar;
- tanlov fanlar.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda kadrlar buyurtmachilari tomonidan taklif etilgan va talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejaci va fanlar dasturlari (sillabuslar) ni o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari Qo'qon universiteti hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkazilishi mumkin.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari va ixtiyoriy stajirovkalari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq 240 kredit (GPA 2 va undan yuqori bo'lganida) tugallanishi shart.

#### **3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiyo'rta talablar Majburiy fanlar bloki bo'yicha:**

- tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko‘nikmalarini va o‘quvlarini shakllantirish;
- moliyaviy jarayonlar evolyusiyasining xususiyatlari va tendensiyalari, milliy moliyaviy tizim va uniy ko‘lamlari, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish muammolari yuzasidan nazariy xulosalar chiqarish;
- moliyaviy bozorlarni isloh qilish bilan bog‘liq munozarali masalalarni muhokama qilish;
- tavakkalchilik va uni pasaytirish, korxonalarda maksimal foydaga erishish nuqtasini aniqlash, talab va taklif elastikligini hisoblash, raqobatlashgan bozor sharoitida narxni belgilash, ishlab chiqarish xarajatlari va foydani hisoblash hamda mehnat bozori, kapital bozori va yer bozorini tahlil qilish;
- makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatishi qonuniyatlarini aniqlash;
- statistika amaliyotida qo‘llaniladigan iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish;
- mehnatni tashkil etishi, mehnat bozorini rivojlantirishi va tartibga solishi hamda aholi bandligini ta’minlash;
- jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlар sohasida ma’lumotlar yig‘ishni tashkillashtirish va ularning sifatini baholashni bilish;
- rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish, bozor holati haqida axborot to‘plash va qayta ishlash, pul, kredit, qimmatli qog‘ozlar, moliya bozorlari faoliyati ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- korxonada marketing faoliyatini tashkil etish tizimi, marketing kompleksi, marketingning ichki va tashqi muhiti, bozor kon'yunkturasi va bozor sig‘imini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mablag‘lari, ularning tashkil topish manbalari va ularning iqtisodiy salohiyatini baholash;
- budjet-soliq siyosatining tarkibi, uning ishlab chiqilishi, amalga oshirilishi va asosiy yo‘nalishlari, investitsiyalarni jaib qilish va baholashning strategik va taktik usullari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish tizimidagi institutlar faoliyati va uni tashkillashtirish;
- ishlab chiqarishni rejalashtirish, loyihalashtirish va tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablarni bilish;
- mehnatni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ishlab chiqarishdan korxonalarning iqtisodiy manfaatdorligini ta’minlash;
- korporativ tizimlarini va ular guruhlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ustunliklarini bilish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiyalash, sanoat xomashyolarini tejash asosida ishlab chiqarishning kelajakdagи rivojlanishn;
- bozor munosabatlari sharoitida korxona faoliyatini tashkil etish va tugatish, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarining bozordagi o‘rni aniqlash;
- korxona asosiy vositalari va aylanma mablag‘lari hamda ulardan oqilona foydalanish;
- industrial tarmoqlarda fan-tehnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari industrial tarmoqlar mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligini oshirish;
- ta’lim yo‘nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi lozim.
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda raqobatbardoshlikni ta’minlashi hamda ta’lim xizmatlari sohalari rivojini jadallashtirish;
- ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar va tarmoqlar va sohalar bo‘yicha o‘quv rejalar va fan dasturi (sillabus)larining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlanish;
- kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to‘g‘ri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarning barqarorligini ta’minlashi lozim.

#### **Tanlov fanlari bo‘yicha:**

*Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавиy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo‘yilgan talablar Qo‘qon universiteti Kengashi tomonidan belgilanadi.*

### **3.2. Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi**

Barcha turdag'i auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 30 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning me'yoriy muddati to'rt yil bo'lgani holda o'quv jarayoni o'rtacha 140-150 hafta davom etishi zarur.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (sillabus), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, moliya, moliya sektori va bozorlari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar, industrial tarmoqlari, korxona faoliyati, ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni texnologik asoslari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va loyihalashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari, modernizatsiya, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

*Ilova*

*Moliya yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasining tuzilishi*

No	No	Fanlar	Fan nomi, ingliz tilida	Kod	Kredit	Umumiy soat	Auditoriya soati	Mustaqil ta’lim soati
<b>1-semestr</b>								
1	1	Biznes va tadbirkorlik asoslari	Business and Entrepreneurship Fundamentals	BusEntr M 106	6	180	72	108
2	2	Iqtisodchilar uchun matematika	Mathematics for Economists	MathEcon M 106	6	180	72	108
3	3	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	History of Economic Thoughts	HisEcon M 106	6	180	72	108
4	4	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari	Information Communication Technologies	InfCom M 106	6	180	72	108
5	5	Ingliz tili	English	English M 103	3	90	36	54
6	6	Rus tili	Russian	Russian M 103	3	90	36	54
		<b>JAMI</b>			<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>
<b>2-semestr</b>								
7	1	Statistika	Statistics	Stat M 106	6	180	72	108
8	2	Pul va moliya	Money and Finance	MonFin M 106	6	180	72	108
9	3	Mikroiqtisodiyot	Microeconomics	MicEcon M 106	6	180	72	108
10	4	Menejment asoslari*	Management Fundamentals	ManFun E 106	6	180	72	108
11	5	Ingliz tili	English	English M 103	3	90	36	54
12	6	Rus tili	Russian	Russian M 103	3	90	36	54
		<b>Tanlov fanlar</b>						
	1	Biznes etikasi*	Business Ethics	BusEth E 106	6	180	72	108
		<b>JAMI</b>			<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>
<b>3-semestr</b>								
13	1	Miqdoriy usullar	Quantitative Methods	QuanMeth M 206	6	180	72	108
14	2	Buxgalteriya hisobi	Accounting	Account M 206	6	180	72	108
15	3	Moliya bozorlari va institutlari	Financial Markets and Institutions	FinMar M 206	6	180	72	108
16	4	Makroiqtisodiyot*	Macroeconomics	MacEcon E 206	6	180	72	108
17	5	Kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili**	Profession-oriented English	ProfEng E 203	3	90	36	54
18	6	Kasbga yo‘naltirilgan rus tili**	Profession-oriented Russian	ProfRus E 203	3	90	36	54
		<b>Tanlov fanlar</b>						
	1	Biznes kommunikatsiya*	Business Communication	BusCom E 206	6	180	72	108
	2	Mintaqaviy iqtisodiyot *	Regional Economics	RegEcon E 206	6	180	72	108
	3	Nemis tili**	German	German E 203	3	90	36	54
	4	Fransuz tili**	French	French E 203	3	90	36	54
	5	Koreys tili**	Korean	Korean E 203	3	90	36	54
		<b>JAMI</b>			<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>
<b>4-semestr</b>								
19	1	Moliyaviy hisob	Financial Accounting	FinAcc M 206	6	180	72	108

20	2	Moliyaviy menejment	Financial Management	FinMan M 206	6	180	72	108
21	3	Bank ishi	Banking	Bank M 206	6	180	72	108
22	4	Raqaml li iqtisodiyot*	Digital Economy	DigEcon E 206	6	180	72	108
23	5	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili **	Profession-oriented English	ProfEng E 203	3	90	36	54
24	6	Kasbga yo'naltirilgan rus tili**	Profession-oriented Russian	ProfRus E 203	3	90	36	54
		<b>Tanlov fanlar</b>						
	1	Iqtisodiy rivojlanish*	Economic Development	EconDev E 206	6	180	72	108
	2	Inson resurslarini boshqarish*	Human Resources Management	HumRes E 206	6	180	72	108
	3	Nemis tili**	German	German E 203	3	90	36	54
	4	Fransuz tili**	French	French E 203	3	90	36	54
	5	Koreys tili**	Korean	Korean E 203	3	90	36	54
		<b>JAMI</b>			<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>

**5-semestr**

25	1	Byudjet siyosati	Budget Policy	BudPol M 306	6	180	72	108
26	2	Ekonometrika I	Econometrics I	Econmet M 316	6	180	72	108
27	3	Soliq va soliqqa tortish	Tax and Taxation	Tax M 306	6	180	72	108
28	4	Korporativ moliya*	Corporate Finance	CorpFin E 306	6	180	72	108
29	5	Qimmatli qog'ozlar bozori**	Securities Markets	SecMar E 303	3	90	36	54
30	6	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili **	Profession-oriented English	ProfEng E 303	3	90	36	54
		<b>Tanlov fanlar</b>						
	1	Operatsion menejment*	Operations Management	OperMan E 306	6	180	72	108
	2	Biznes psixologiya**	Business Psychology	BusPsy E 303	3	90	36	54
	3	Kasbga yo'naltirilgan nemis tili**	Profession-oriented German	ProfGer E 303	3	90	36	54
	4	Kasbga yo'naltirilgan fransuz tili**	Profession-oriented French	ProfFren E 303	3	90	36	54
		<b>JAMI</b>			<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>

**6-semestr**

31	1	Xaqaro moliya	International Finance	IntFin M 306	6	180	72	108
32	2	Ekonometrika II*	Econometrics II	Econmet E 326	6	180	72	108
33	3	Investitsiyalar*	Investments	Invest E 306	6	180	72	108
34	4	Boshqaruv hisobi	Managerial Accounting	ManAcc M 306	6	180	72	108
35	5	Kasbga yo'naltirilgan ingliz tili **	Profession-oriented English	ProfEng E 303	3	90	36	54
36	6	Notiqlik san'ati va liderlik**	Public Speaking and Leadership	PubLead E 303	3	90	36	54
		<b>Tanlov fanlar</b>						
	1	Xalqaro biznes*	International Business	IntBus E 306	6	180	72	108
	2	Sifat boshqaruvi*	Quality Management	QualMan E 306	6	180	72	108
	3	Marketing*	Marketing	Mark E 306	6	180	72	108
	4	Kasbga yo'naltirilgan fransuz tili**	Profession-oriented French	ProfFren E 303	3	90	36	54

	<b>5</b>	Kasbga yo'naltirilgan nemis tili**	Profession-oriented German	ProfGer E 303	3	90	36	54
	<b>6</b>	Sotsiologiya**	Sociology	Socio E 303	3	90	36	54
	<b>7</b>	Falsafa**	Philosophy	Philos E 303	3	90	36	54
	<b>JAMI</b>				<b>30</b>	<b>900</b>	<b>360</b>	<b>540</b>
<b>7-semestr</b>								
<b>37</b>	<b>1</b>	Tadqiqot metodlari	Research Methods	ResMeth M 406	6	180	72	108
<b>38</b>	<b>2</b>	Risklarni boshqarish*	Risk Management	RiskMan E 406	6	180	72	108
<b>39</b>	<b>3</b>	Audit	Auditing	Audit M 406	6	180	72	108
<b>40</b>	<b>4</b>	Moliyaviy texnologiyalar*	Financial Technologies	FinTech E 406	6	180	72	108
<b>41</b>	<b>5</b>	Amaliyat	Internship	Intern M 406	6	180		180
	<b>Tanlov fanlar</b>							
	<b>1</b>	Moliyaviy rejalashtirish*	Financial Planning	FinPlan E 406	6	180	72	108
	<b>2</b>	Loyiha boshqaruvi*	Project Management	ProjMan E 406	6	180	72	108
	<b>3</b>	Sug'urta ishi*	Insurance	Insur E 406	6	180	72	108
	<b>JAMI</b>				<b>30</b>	<b>900</b>	<b>288</b>	<b>612</b>
<b>8-semestr</b>								
<b>42</b>	<b>1</b>	Xalqaro iqtisodiyot	International Economics	IntEcon M 475	7,5	225	90	135
<b>43</b>	<b>2</b>	Ma'lumotlar tahlili	Data Science	DatSci M 475	7,5	225	90	135
<b>44</b>	<b>3</b>	Biznes huquqi	Business Law	BusLaw M 475	7,5	225	90	135
<b>45</b>	<b>4</b>	Yakuniy loyiha ishi	Final Project	FinProj M 475	7,5	225		225
	<b>JAMI</b>				<b>30</b>	<b>900</b>	<b>270</b>	<b>630</b>
	<b>JAMI:</b>				<b>240</b>	<b>7200</b>	<b>2718</b>	<b>4482</b>

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari xamda  
kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQLGAN:**

Qo'qon universiteti rektori

Sh.Mustafakulov

M.O'.

202

«\_\_\_»

Qo'qon shahar hokimiyati

Iqtisodiyot va tadbirdorlik masalalari  
bo'yicha hokimning birinchi qirinbosari

Sh.Dehqonov

M.O'.

202

«\_\_\_»

**KELISHILGAN**

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari  
va ilg'or texnologiyalarini tatbiq etish  
markazi direktori

Z. Xakimov



202

«\_\_\_»

rektori


K.A. Sharipov

202 «\_\_\_»

M.O'.

**“Moliya” bakkalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun yangidan yaratilgan davlat ta’lim talablariga kiritilgan kadrlar iste’ molchilarining ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan umumiyl davlat ta’lim talablarini (kasbiy kompetentlik talablari)**

Nº	Vazirlilik (idora)ning tashkilot (korxona)lari uchun kadr tayyorlanayotgan bakkalavriat ta’lim yo‘nalishlari nomi	Vazirlilik (idora)ning ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari kasbiy faoliya glariga qo‘yiladigan umumiyl davlat ta’lim talablarini (kasbiy kompetentlik talablari)
1	Moliya	<ul style="list-style-type: none"> <li>- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, ijtimoiy-iqtisodiy va moliya fanlari asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahsil qila olishi;</li> <li>- milliy ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniyatlararo aloqalar aloqalararo yuzzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, moliyaviy bilimlar naziariya va amaliyotiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;</li> <li>- ishlab chiqarish jarayonlарини axborotlashtirish, ishlab chiqarishga axborot texnologiyalarini IoT, BigData tizimlarini joriy etish hisobiga raqamlashtirish va blokcheyinni qo‘llash usullari haqidada maxsus tasavvur va bilimlarga ega bo‘lishi;</li> <li>- moliya sektor va uni rivojlanishi, jahon xo‘jaligini o‘zgarish tendensiyalari hamda barcha bozorlardagi ishtiroychilarning harakatlарини anglashi va tahsil qila olishi;</li> <li>- insonnинг boshqqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovichchi huquqiy mezonlarni biliishi;</li> <li>- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanimish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;</li> <li>- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;</li> <li>- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tasklari qila otishi lozim.</li> </ul>



**Qo‘qon shahar Iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari  
bo‘yicha hokimning birinchi o‘rinbosari Sh.Dehqonov  
prorektori  
O.R. Sheraliev**

**Qo‘qon shahar Iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari  
bo‘yicha hokimning birinchi o‘rinbosari Sh.Dehqonov**

**Qo‘qon universiteti nodavlat oliy ta’lim muassasining “Moliya” bakalavriat  
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab  
chiquvchilar hamda kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Qo‘qon shahri**

**20 \_\_\_\_\_ yil**

**Qo‘qon shahar Iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha hokimning  
birinchi o‘rnbosari Sh.Dehqonov va Qo‘qon universiteti Akademik ishlar  
bo‘yicha prorektori O.Sheraliev mazkur kelishuv dalolatnomasini quyidagilar  
haqida tuzdik:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ-637-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son Qarori bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda Oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar Dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi Dasturi”ning III qismi hamda 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqqisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3151-sonli, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-sonli, 2019 yil 18 avgustdagagi “Qo‘qon universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 683-sonli Qarorlarida hamda Vazirlilikning 2017 yil 6 maydagagi 294-sonli, 30 maydagagi 356-sonli, 19 iyundagi 407-sonli buyruqlari ijrosini ta’minlash maksadida Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, Qo‘qon universiteti, turdosh oliy ta’lim muassasalarini hamda tegishli soha va tarmoqlar bo‘yicha kadr iste’molchilari bilan birgalikda tashkil qilingan ishchi-guruqlar tomonidan “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori”ga muvofiq ishlab chiqilgan ta’lim yo‘nalishlarining davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqildi.

2. “Moliya” ta’lim yo‘nalishining davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda turdosh oliy ta’lim muassasalarini - Toshkent Moliya instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Qo‘qon universiteti professor-o‘qituvchilari hamda ishlab chiqarish mutaxassislarini o‘z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etganlar.

3. “Moliya” ta’lim yo‘nalishi kadrlar iste’molchisi - Qo‘qon shahar hokimligi mutaxassislarini tomonidan mazmunan o‘rganildi hamda ularni maromiga yetkazish maqsadida tegishli takliflar bildirildi. Asosiy kadr iste’molchi sifatida Qo‘qon

shahar hokimligining mutaxassislari va turdosh OTMlari professor - o'qituvchilarining takliflari "Moliya" ta'lif yo'nalishlarining davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini mukammallashtirishda inobatga olindi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur davlat ta'lif talablari va o'quv rejalarini o'quv jarayonlariga tatbiq etish mumkin, deb hisoblaymiz.

**Qo'qon shahar Iqtisodiyot va  
tadbirkorlik masalalari bo'yicha  
hokimning birinchi o'rinnbosari**

**Sh.Dehqonov**



M.O.:

20 yil

**Qo'qon universiteti Akademik ishlar  
bo'yicha prorektori O.Sheraliev**

M.O.

20 yil



**Qo‘qon universiteti, turdosh oliy ta’lim muassasalari va kadrlar  
iste’molchilari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta’lim yo‘nalishlari davlat  
ta’lim talablariga berilgan**

**TAQRIZ**

Respublikada oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ta’lim tizimini zamонавиylashtirish, talabalarni mustaqil fikrlashga о’rgatish va nazariy bilimlarini amalda samarali qo’llashga qaratib kelinmoqda. Bu borada, oliy ta’limda islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘plab huquqiy-me’yoriy hujjatlar hkam qabul qilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyardagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ-637-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3151-sonli Qarori, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-sonli Qarori, 2019 yil 18 avgustdagagi “Qo‘qon universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 683-sonli Qarorlari ijrosini ta’minalash maqsadida Qo‘qrn universiteti tomonidan “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori”ga muvofiq ta’lim yo‘nalishlari davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarini tatbiq etish markazi, turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari bilan kelishilganligini tasdiqlovchi muhr va imzolar o‘z ifodasini topgan.

Davlat ta’lim talablarini ishlab chiqishda “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiylaysi, qo’llanish sohasi, kasbiy faoliyatlarining tafsifi, bakalavrlearning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiylaysi talablar, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlearning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan davlat ta’lim talablari, ta’lim yo‘nalishilarining o‘quv rejasi va fan dasturi (sillabus)lari mazmuniga qo‘yiladigan umumiylaysi talablar, o‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiylaysi talablar, bakalavriat ta’lim yo‘nalishilar o‘quv rejasiidagi yuklama hajmi, ilovalar, bibliografik ma’lumotlar, ishlab chiquvchilar, asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari bilan kelishilganligini tasdiqlovchi muhr va imzolar o‘z ifodasini topgan.

“Iqtisodiyot”, “Moliya”, “Menejment”, “Tadbirkorlik” ta’lim yo‘nalishlarining davlat ta’lim talablari va o‘quv rejalarini Bolonya kelishuviga asosida ta’sis etilgan o‘qitishning kredit tizimiga asoslangan bo‘lib, Janubiy Koreyaning ta’lim tizimidan foydalanilgan. Bunda, fanlar soni optimallashtirilgan bo‘lib, kadrlar buyurtmachilarining talablari va xorijiy tajribalar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. Shunga asosan, bir semestrda eng ko‘pi bilan 6 tagacha fan

belgilangan. Talabalarga ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat namunasidagi diplom olish uchun mezon sifatida 240 kredit toplashi va o'rtacha o'zlashtirish darajasi 2 GPA dan kam bo'lmasligi belgilab olingan.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohalarining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste'molchilarining talablarini oliv ta'lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliv ta'lim davlat ta'lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda ularning uzviyilagini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Qo'qon universiteti va hamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan "Iqtisodiyot", "Moliya", "Menejment", "Tadbirkorlik" ta'lim yo'nalishlarining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalari ko'rib chiqildi va ular belgilangan me'yor talablariga javob beradi. Ushbu davlat ta'lim talablari oliv ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga mos ravishda iqtisodiyotda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, oliv ta'lim muassalarida zamonaviy innovatsion texnologiyalar bo'yicha chuqur bilim hamda amaliy ko'nikmalarni tayyorlanadigan kadrlarga yetkazishga mo'ljallangan.

Umuman olganda, Qo'qon universiteti tomonidan ishlab chiqilgan "Iqtisodiyot", "Moliya", "Menejment", "Tadbirkorlik" ta'lim yo'nalishlarining davlat ta'lim talablari va o'quv rejalari o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishi va amaliyotga tatbiq etilishini mumkin, deb hisoblaymiz.

**Farg'ona politexnika instituti**

**O'quv ishlari bo'yicha prorektori,**

i.f.n., dotsent:

**J.X.Kambarov**

